

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ROBOTLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Zoirov Ulmas

Xalqaro Nordik Universiteti

“Sanoat boshqaruvi va raqamli texnologiyalar”

kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: u.zoirov@nordicuniversity.org

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirish texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot davomida robot tizimlarining mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi, operatsion xarajatlar va mahsulot sifatiga ta’siri tahlil qilindi. Natijalar robotlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirgani, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirgani va mahsulot nuqsonlarini kamaytirganini ko‘rsatdi. Robot texnologiyalari ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlab, korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlagani aniqlandi. Tahlillar investitsiyalarning ma’lum muddatda qoplanishini hamda uzoq muddatli iqtisodiy natijadorlikni ta’minlaganini tasdiqladi. Tadqiqot robotlashtirishning raqamli transformatsiya jarayonlaridagi muhim o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, robotlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi, operatsion xarajatlar, investitsiya samaradorligi, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье была исследована экономическая эффективность роботизации в условиях цифровой экономики. В ходе исследования был проведён анализ влияния роботизированных систем на производительность труда, объём производства, операционные затраты и качество продукции. Полученные результаты показали, что роботизация способствовала оптимизации производственных процессов, повышению эффективности использования ресурсов и снижению количества производственных дефектов. Также было установлено, что роботизированные технологии обеспечили непрерывность производственных процессов и укрепили конкурентоспособность предприятий. Анализ подтвердил окупаемость инвестиций в среднесрочной перспективе и их положительное влияние на долгосрочные экономические результаты. Исследование научно обосновало значимость роботизации в процессах цифровой трансформации экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, роботизация, экономическая эффективность, производительность труда, объём производства, операционные затраты, инвестиционная эффективность, конкурентоспособность.

Abstract

This article examined the economic efficiency of robotization in the context of the digital economy. The study analyzed the impact of robotic systems on labor productivity, production volume, operating costs, and product quality. The findings

demonstrated that robotization optimized production processes, improved resource utilization efficiency, and reduced product defects. The analysis also showed that robotic technologies ensured production continuity and strengthened enterprise competitiveness. Furthermore, the results confirmed that investments in robotization generated positive economic returns within a reasonable period and contributed to long-term business performance. The research highlighted the significant role of robotization in supporting digital transformation and enhancing industrial development. The study scientifically confirmed its contribution to sustainable economic efficiency.

Keywords: digital economy, robotization, economic efficiency, labor productivity, production volume, operating costs, investment efficiency, competitiveness.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarish tizimlarining rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmog'da. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash texnologiyalari hamda narsalar interneti (IoT) kabi innovatsion yechimlarning keng joriy etilishi korxonalar faoliyatini tubdan o'zgartirmog'da. Mazkur jarayonlar ishlab chiqarishning an'anaviy usullaridan raqamli boshqaruv tizimlariga o'tishni jadallashtirib, korxonalarining samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmog'da. Ayniqsa, sanoat korxonalarida robotlashtirish texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilashning muhim vositasiga aylanmog'da.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmog'daki, robotlashtirish nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi xatolarni kamaytirish va korxonalarining global bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotda avtomobilsozlik, elektronika, logistika, metallurgiya va kimyo sanoati kabi tarmoqlarda robot texnologiyalarining keng qo'llanilishi iqtisodiy samaradorlikning sezilarli darajada ortishiga olib kelgan. Shu sababli robotlashtirish bugungi kunda sanoat rivojlanishining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmog'da.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirishning iqtisodiy samaradorligini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki korxonalarda robot texnologiyalarini joriy etish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Mazkur investitsiyalarning iqtisodiy natijadorligini baholash, ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini aniqlash hamda uzoq muddatli istiqboldagi afzalliklarini tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Robotlashtirish yordamida korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energiya va xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash va inson omili bilan bog'liq xatolarni minimallashtirish imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirishning iqtisodiy samaradorligi masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Dastlabki tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar va ularning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyati yoritilgan. Rajabov va hammualliflar raqamli texnologiyalarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, ularning zamonaviy iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyatini asoslab berganlar[1].

Korxonalar raqobatbardoshligini raqamli iqtisodiyot sharoitida baholash masalalari Kobilov, Rixsimboyev va Rajabov tomonidan o'rganilgan. Mualliflar raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalarining iqtisodiy natijalarini yaxshilash va bozor ustunliklarini mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlaganlar[2].

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalalari Rajabov va hammualliflarning serverlarni mobil qurilmalar orqali monitoring qilish tizimlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida yoritilgan[3].

Safarovich, Urinovich va Rajabov innovatsiyalar hamda raqamli iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatganlar [4].

Abdullayev korxonada boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari natijadorligini oshirishga xizmat qilishini asoslagan[5].

Sun'iy intellektning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va istiqbollari Istora tomonidan o'rganilib, ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda qaror qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan[6].

Kuzieva va hammualliflar sun'iy intellekt asosidagi resurslarni taqsimlash tizimlari va iqtisodiy siyosatni rejalashtirish mexanizmlarini tadqiq qilib, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy boshqaruvdagi ahamiyatini yoritganlar[7].

Abdusalomova sun'iy intellekt texnologiyalarining global rivojlanish istiqbollari va qo'llanilish sohalarini tahlil qilib, ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi rolini asoslab bergan [8]. Sun'iy intellekt etikasi va undan xavfsiz foydalanish masalalari Abdusalomova va hammualliflar tomonidan o'rganilgan[9].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida adabiyotlar tahlili qo'llanildi. Shu orqali robotlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil metodi yordamida robotlashtirilgan va an'anaviy ishlab chiqarish tizimlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari solishtirildi. Shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil metodi asosida mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot sifati va investitsiya rentabelligi ko'rsatkichlari o'rganildi.

Bundan tashqari, robotlashtirish texnologiyalarining korxonalar faoliyatiga ta'sirini baholashda tizimli yondashuv metodi qo'llanilib, ishlab chiqarish jarayonlari yagona tizim sifatida tahlil qilindi. Olingan natijalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalar shakllantirishda esa sintez va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar tadqiqot maqsadiga erishish va robotlashtirishning iqtisodiy samaradorligini har tomonlama baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirish texnologiyalarining korxonalar iqtisodiy faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi va olingan natijalar robotlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida ishlab chiqarish jarayonlariga robot tizimlarini joriy etgan korxonalarda mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshgani, ishlab chiqarish xarajatlari kamaygani hamda mahsulot sifati yaxshilangani aniqlandi. Robotlar ishlab chiqarish operatsiyalarini yuqori aniqlik va uzluksizlik bilan bajarishi natijasida inson omili bilan bog'liq xatolar soni kamaygan, ishlab chiqarish sikllari qisqargan va mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortgan. O'rganilgan korxonalarda mehnat unumdorligi o'rtacha 30-40 foizga oshgani, ishlab chiqarish hajmi esa 25-35 foizga ko'paygani kuzatildi. Bu esa korxonalarining mavjud resurslardan samaraliroq foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Tadqiqot natijalari robotlashtirishning operatsion xarajatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ishlab chiqarish jarayonlarida robotlardan foydalanish energiya sarfini optimallashtirish, xomashyo yo'qotishlarini kamaytirish va takroriy ishlab chiqarish jarayonlarini qisqartirish imkonini yaratgan. Natijada korxonalarda operatsion xarajatlar o'rtacha 20-25 foizga qisqargan. Ayniqsa, logistika va ombor boshqaruvi tizimlarida avtomatlashtirilgan robot texnologiyalarining joriy etilishi mahsulotlarni saqlash va tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilgan. Robotlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari inson mehnatiga bog'liqlikni qisqartirgan holda ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlagan

1-jadval

Robotlashtirish joriy etilishidan oldin va keyingi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar¹

Ko'rsatkichlar	Robotlashtirishdan oldin	Robotlashtirishdan keyin	O'zgarish, foizda
Mehnat unumdorligi	100	138	38
Ishlab chiqarish hajmi	100	132	32
Mahsulot nuqsonlari	100	68	-32
Operatsion xarajatlar	100	79	-21
Buyurtmani bajarish muddati	100	73	-27

1-jadval ma'lumotlari robotlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Xususan, ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi

¹ Olib borilgan tadqiqotlar davomida muallif tomonidan tuzilgan

ortgan bo'lsa, mahsulot nuqsonlari hamda operatsion xarajatlar kamaygan. Bu esa robot texnologiyalarining korxonada faoliyatidagi iqtisodiy natijadorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida robotlashtirishning mahsulot sifatiga ta'siri ham o'rganildi. Natijalar robotlashtirilgan ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot nuqsonlari soni o'rtacha 30 foizdan ortiq kamayganligini ko'rsatdi. Robotlarning yuqori aniqlik bilan ishlashi mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlagan va ishlab chiqarishdagi texnologik xatolarni minimallashtirgan. Mahsulot sifatining yaxshilanishi korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan korxonalarda xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaygan.

Investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari ham robotlashtirishning iqtisodiy jihatdan foydali ekanligini ko'rsatdi. Dastlabki investitsiya xarajatlari yuqori bo'lishiga qaramasdan, robot tizimlarining joriy etilishi natijasida xarajatlarning kamayishi va ishlab chiqarish hajmining ortishi investitsiyalarning tezroq qoplanishiga olib kelgan. Tahlillar asosida investitsiyalarning qaytish muddati o'rtacha 3-5 yilni tashkil etishi aniqlangan. Ayrim yuqori texnologiyali korxonalarda esa bu ko'rsatkich 2-3 yilgacha qisqargan. Shu bilan birga, robotlashtirish natijasida korxonalarining sof foydasi va rentabellik darajasi oshgani kuzatilgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirish texnologiyalarini joriy etish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Robotlashtirish mehnat unumdorligini yuksaltirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va investitsiya rentabelligini oshirish orqali korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli sanoat korxonalarida robot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish va ularni raqamli transformatsiya strategiyalarining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirish texnologiyalarining korxonalar iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, robotlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali mehnat unumdorligini oshiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi hamda mahsulot sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, bu jarayonning iqtisodiy samaradorligi faqat texnologik omillarga emas, balki tashkiliy, moliyaviy va inson kapitali omillariga ham bog'liq ekanini aniqlandi. Robotlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi va ishlab chiqarish uzluksizligini oshiradi. Natijada korxonalar faoliyatida iqtisodiy ko'rsatkichlar yaxshilanadi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashadi.

Tadqiqot davomida robotlashtirishni joriy etish bilan bog'liq bir qator muammolar ham aniqlandi. Eng asosiy muammo sifatida yuqori boshlang'ich investitsiya xarajatlari qayd etiladi, chunki robot tizimlarini sotib olish va ularni ishlab chiqarishga moslashtirish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bundan tashqari, malakali mutaxassislar yetishmasligi ham texnologiyalarni samarali qo'llashga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Texnik xizmat ko'rsatish, dasturiy

ta'minotni boshqarish va tizimlarni yangilash bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalar mavjud emasligi korxonalarda qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli robotlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Robotlashtirishning yana bir muhim jihati uning mehnat bozoriga ta'siri bilan bog'liq. Tadqiqot natijalari ayrim takrorlanuvchi ish o'rinlari qisqarishi mumkinligini ko'rsatadi, bu esa ishchi kuchining qayta tayyorlanishini talab qiladi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar yangi ish o'rinlarini ham yuzaga keltiradi, ayniqsa muhandislik, axborot texnologiyalari va texnik xizmat ko'rsatish sohalarida. Bu esa mehnat resurslarining tarkibiy o'zgarishini anglatadi va ularni boshqarish uchun ta'lim tizimi hamda ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligini bildiradi.

Robotlashtirish korxonalar uchun nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ham ega bo'lib, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bunday texnologiyalarning keng joriy etilishi korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida robotlashtirish texnologiyalarining korxonalar iqtisodiy samaradorligiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tadqiqot natijalari robotlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda operatsion xarajatlarni kamaytirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, robot tizimlarining joriy etilishi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishi va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, robotlashtirishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lishiga qaramay, uning joriy etilishi katta boshlang'ich investitsiyalarni talab qiladi. Shu bilan birga, malakali kadrlar yetishmasligi va texnik infratuzilmaning to'liq shakllanmaganligi kabi omillar robotlashtirish jarayonining keng joriy etilishiga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda robotlashtirish korxonalar uchun sezilarli iqtisodiy foyda keltirishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar natijasida robotlashtirish natijasida ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi oshishi, mahsulot nuqsonlari kamayishi hamda investitsiya samaradorligi yaxshilanishi aniqlandi. Bu esa robot texnologiyalarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Robotlashtirish jarayonlari mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, yangi kasblarga ehtiyoj ortishini ham ko'rsatdi. Shu sababli ta'lim tizimi va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib, sanoat korxonalarida robotlashtirish texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda innovatsion boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rajabov S. B. et al. Social mining and its development stages //Science and Education. - 2023. - T. 4. - №. 4. - С. 1342-1345.
2. Kobilov A. U., Rikhsimboev O. K., Rajabov Sh B. A global approach to assessing competitiveness digital economy //Экономика и бизнес: теория и практика. - 2021. - №. 11-2. - С. 115-119.
3. Rajabov S. et al. CREATE A SYSTEM FOR MONITORING SERVERS VIA MOBILE DEVICES //Altum International Conference Platform. - 2026. - №. 4. - С. 41-43.
4. Safarovich K. T., Urinovich K. A., Bakhtiyorovich R. S. INNOVATION AND THE DIGITAL ECONOMY //Gospodarka i Innowacje. - 2022. - T. 23. - С. 122-128.
5. Abdullayev M. Компания бошқарувида ахборот тизимларидан самарали фойдаланиш йўллари //Архив научных исследований,(20). — 2020.
6. Istora A. RAQAMLI IQTISODIYOTDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI VA ISTIQBOLLARI //Marketing Jurnal. - 2026. - №. 4.
7. Kuzieva, N., Bakhodirova, K., Makhmudov, S., Khodjakulova, F., Mardanova, R., & Abdusalomova, I. (2025, December). Co-integrating intelligent Resource Allocation System and Economic Policy Planning: Use Cases in Uzbekistan. In Proceedings of the 9th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 41-48).
8. Abdusalomova I. I. Q. Sun'iy intellekt texnologiyalarining global rivojlanish istiqbollari va qo'llanilish sohalari //Science and Education. - 2025. - T. 6. - №. 12. - С. 134-140.
9. qizi Abdusalomova I. I. et al. COMPLIANCE WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) ETHICS IN EDUCATION AND SAFETY ISSUES //International Conference Platform. - 2025. - №. 6. - С. 191-193.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**